

O'zbekiston kasaba uyushmalar Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi Yoshlar birlashmasining 2021 yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida ma'lumot

“O'zbekiston kasaba uyushmalar Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashining 2021 yil yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi” asosida tuman kengashlari, boshlang‘ich kasaba uyushmalar tashkilotlarida birlashma va komissiyalarining Dasturlari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.



Yoshlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, kasb-hunarga o'rgatish va qayta tayyorlash yo'nalishida Yoshlarga kelajakda munosib ish joyini topishlariga ko'maklashish maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilari viloyat “Erkin iqtisodiy zonasida”gi qo'shma korxonalar hamda yirik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati bilan tanishtirildi va ularning rahbarlari ishtirokida uchrashuvlar, treninglar o'tkazildi.

Navoiy Davlat Konchilik Instituti faollar zalida yoshlarga kelajakda munosib ish joyini topishlarida ko'maklashish, yirik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilari va yirik tashkilot rahbarlari ishtirokida yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkaziladi. Tadbirda yirik tadbirkorlik sub'ektlari rahbarlaridan “**Zarafshon Golden Group**” kompaniyasi ta'sischisi, senator Fayziyev Ulug'bek G'aniyevich, “Eksport Fish Product” MChJ rahbari Saidov Obidjon Odil o'g'li, “Garden Hous Group” rahbari Sirojov Farxod Ravshanovichlar ishtirok etdilar. Ochiq muloqotda bitiruvchi yoshlarni qiziqtirgan har qanday savollarga tadbirkorlarimiz tomonidan aniq hamda hayotiy misollar orqali javoblar berildi. Muloqot davomida U.Fayziyev viloyatda yuritayotgan tadbirkorliklari bilan bir qatorda senator sifatida ham yoshlarning uy fikrlari, takliflari bilan yaqindan tanishdi. Ularni “Zarafshon Golden Group” kompaniyasi faoliyati bilan yaqindan

tanishishlari uchun kelishib olib, kelgusida ushbu kompaniyada ishlashlari uchun imkoniyatlar yaratilayotganligi haqida gapirdi. Tadbir so‘ngida bitiruvchi yoshlar tadbirkorlarimizning esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Tadbirda 200 dan ortiq yoshlarning ishtiroki ta’minlandi. Ushbu ochiq muloqot tafsilotlari 2021 yil 20 mart kuni Navoiy viloyat televideniyasining “ZAMON-24” informatsion dasturida yoritildi.



Joriy yilning aprel oyida **“Zarafshon Golden Group” kompaniyasi rahbari U.Fayziyev ko‘magida, “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi** Navoiy viloyat filiali hamkorligida 2021 yil “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yili davlat dasturi ijrosini ta’minlash, yoshlarga kelajakda munosib ish joyini topishlariga ko‘maklashish hamda yirik tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida “Yoshlar daftari”ga kiritilgan, tadbirkorlikka ishtiyoqi bor ishsiz yoshlar ishtirokida “Zarafshon Golden Group” kompaniyasining eng oxirgi texnologiyalar asosida qurilgan yirik ishlab chiqarish zavodlari hamda hozirgi zamon talablariga mos ravishda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga mo‘ljallangan issiqxonalarga sayohat uyshtirildi.



Sayohat davomida mazkur kompaniya tomonidan ishlab chiqarilib chet davlatlarga eksport qilinayotgan har xil turdag'i qurilish materiallarining ishlab chiqarish bosqichlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, gul ko'chatlarining parvarishlash jarayonlari kompaniya mutaxassislari tomonidan tushuntirib borildi.



Yoshlarimiz ushbu jarayonlarni o'z ko'zlari bilan ko'rib tanishar ekan qalblarida bir olam taassurotalar bilan qaytishdi. Kelajakda ish joyi tanlash istagidagi bo'lgan yoshlarda "Zarafshon Golden Group" kompaniyasida ishlash istagi uyg'ondi.

Shuningdek, yosh tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga xaridorlarni jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida viloyat xotin-qizlar tadbirkorlik markaziga qarashli Karmana tumani Toshkent ko'chasida joylashgan "SHADOZI" kelinlar libosi binosida "Korxonamiz mahsulotlari" hamda "Qo'l mehnati mahsulotlari" ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazmada mazkur o'quv kursi a'zolari tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari namoyish etilib, o'quv kursi rahbari N.Hasanova hamda yosh tadbirkor M.Saidova tomonidan seminar trening darslari tashkil etildi. Ushbu seminar treningda 164 nafar yoshlar ishtirok etdi.



“28 aprel butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni”ga bag‘ishlab viloyatdagi kasaba uyushmalariga a’zo yirik boshlang‘ich tashkilotlarida kasaba uyushmlari va hamkor tashkilotlar tashabbusi bilan 26-30 aprel kunlarida Navoiy Erkin iqtisodiy zonasidagi korxonalar, “Navoiyazot”AJ, “Uztelekom”AJ Navoiy viloyat filiali, “Navoiyneftbaza” MChJ, “Qizilqumgeologiya” DUK, “Hududgaz Navoiy” viloyat filiali, “Navoiydonmahsulotlari” AJ, Navoiy viloyat bojxona boshqarmasi, “Qizilqumsement” AJ, “Issiqlik Manbai”DUK, “Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi qoshidagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi”, Navoiy viloyat Markaziy bank boshqarmasi, O’zbekiston davlat filarmoniyasi Navoiy viloyat bo‘linmasi, “O’zsanoatqurilishbank” ATB Navoiy Mintaqaviy filiali, Navbaxor TTB kabi korxona va tashkilotlarida davra suhbatlari, turli uchrashuvlar, madaniy va boshqa tadbirlar o‘tkazildi.



Bu tadbirlar qatorida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosatining "Mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish yuzasidan respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi o'tkazildi. Viloyat bosqichida 62 ta korxonadan "Eng yaxshi tashkilot", "Eng yaxshi kasaba uyushma qo'mitasi", "Eng yaxshi vakil", "Eng yaxshi mehnat muhofazasi bo'yicha yosh mutaxassis" nominatsiyalari bo'yicha hujjatlar qabul qilinib, g'olib bo'lganlar viloyat Kengashining estalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Xususan, "Eng yaxshi mehnat muhofazasi bo'yicha yosh mutaxassis" nominatsiyasi bo'yicha II-o'rinni 1.Madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi RK- O'zbekiston davlat filarmoniyasi Navoiy viloyat bo'linmasi, Doniyorova Kumushbibi Dilshod qizi; 2.Ta'lif fan xodimlari kasaba uyushmasi RK- Karmana tumani Nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti "NEW CHILDERN GARDEN" 3.Kimyo xodimlari kasaba uyushmasi RK "Navoiyazot" AJ, Muradov Djamshid Ibatovich 4.O'zbekiston Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish soxalari xodimlari kasaba uyushmasi RK "Issiqlik Manbai" DUK Farmonov Ma'ruf Nurmuxammadovich; 5.Davlat muassasalarini va jamoat xizmati xodimlari RK – Navoiy viloyat Markaziy bank boshqarmasi Sharipov Umurzoq.



"Mehnat muhofazasi" oyligi doirasida o'tkazilgan tadbirlarning barchasida yoshlarning faol ishtiroki ta'minlandi.

Yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish yo'nalishida "Besh tashabbus – besh imkoniyat" loyihasi doirasida joriy yilning 11, 12, 23-mart kunlarida NDKI talabalari, viloyat kengashi xodimlari, 25-maxsus internat tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda 250 nafar yoshlarning Navoiy Davlat Pedagogika instituti huzuridagi "Qatag'on qurbanlari" va Viloyat o'lkashunoslik muzeylariga tashrifi tashkil etildi.

Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida “Oromgohimda 5 ta muhim tashabbus” loyihalari tashkil etildi. Joriy yil “Navoiyazot” AJ tasarrufidagi “Oftobjon”, Qiziltepa tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli “Do‘stlik” va “Nimkon”, O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat kengashi qoshidagi “Ishonch” oromgohi, shuningdek “Qizilqumsement” AJ tasarrufidagi “Shaboda” oromgohi, NKMK qarashli 6 ta shahardan tashqari “Sarmish”, “Sug‘diyona”, “Bolajon”, “Kelajak”, “Pahlavon”, “Zarafshon” hamda 7 ta kunduzgi oromgohlar faoliyat yuritmoqda. Oromgoh mas’ullari bilan hamkorlikda “Oromgohimda 5 ta muhim tashabbus” loyihasi doirasida “Kitob mening do‘stim” viktorina va aksiyasi, “Yosh kitobxonlar”, “Men sevib o‘qigan kitob”, “Eng yaxshi kitobxon”, “Biz yoshlari giyohvanlikka qarshimiz ”shiori ostida rasmlar tanlovi, kompyuter savodxonligini oshirish bo‘yicha ham turli xil tadbirlar o‘tkazildi va yana bu kabi tadbirlar davom etmoqda.



Joriy yilning 7 aprel kuni O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tassarufidagi “Jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish ishlari boshqarmasi”ning Navoiy viloyati bo‘yicha mas’ul tashkilotchisi bilan hamkorlikda Navoiy viloyat futbol akademiyasi tasarrufida bo‘lgan “Kimyogar” o‘yingohining sport maydonida kasaba uyushmalari tizimidagi korxona, tashkilot hamda muassasalarda faoliyat yuritayotgan, 30 yoshgacha bo‘lgan ishchi xodimlar o‘rtasida “Kasaba uyushmasi kubogi” uchun sportning mini-futbol turi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi. Navbatdagi tadbir millionlar o‘yini – futbolga bag‘ishlandi.

Tadbirni viloyat futbol akademiyasi bosh murabbiysi Amonov Nasriddin Shamsiyevich ochib berdi. Bosh murabbiy o‘z nutqida mamlakatimizda yoshlari sportiga, ularning jismonan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishlariga qaratilayotgan e’tibor o‘z samarasini ko‘rsatayotganini alohida ta’kidlagan holda ishtirokchilarni bugungi bayram bilan qutladi. Guruh sardorlari tomonidan qur’a tanlash orqali raqib komandalar belgilab olindi. Mazkur musobaqada iste’dodli sportchi bolalarni ko‘rdik. Chiroyli o‘yinlarning


guvohi bo‘ldik. Futbol – bu jamoa o‘yini hisoblanadi. Unda yoshlar bir jamoa sifatida bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligiga amin bo‘lishdi. Mini futbol bo‘yicha o‘tkazilgan o‘yinlarlarda (1-o‘rin) «Qizilqumsement» AJ jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritishdi. 2-o‘rin «O’zbektelekom» AK Navoiy filiali jamoasiga, 3-o‘rin esa «Navoiy IES» AJ jamoasiga nasib etdi. G‘oliblarga esdalik sovg‘alari viloyat kengashi raisining o‘rinbosari N.Isoqov tomonidan topshirildi. Tadbir yakunida sport musobaqasi ishtirokchilari, ularga muxlislik qilgan jamoadoshlari bilan birqalikda esdalik uchun suratlarga tushildi. Tadbirda faol ishtirok etgan jamoalarga viloyat kengashi raisining tabrik so‘zлari bitilgan nominatsiyalar topshirildi.



Yosh avlodni sportga jalb qilish, Xotin-qizlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, bu orqali jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish, sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti ishlari samaradorligini oshirishda hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosatining “Sog‘lom turmush tarzi” platformasi faoliyatini tashkil etish maqsadida viloyat kengashi, Jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish ishlari boshqarmasi Navoiy viloyati mas‘ul tashkilotchisi hamda O‘zbekiston XDP Navoiy viloyat kengashi hamkorligida joriy yilning 20 may kuni markazdan olisda joylashgan Xatirchi tumanidagi “Sangijuman” MFY da istiqomat qiladigan barcha ayollar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ayni vaqtida ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlar o‘rtasida sport tadbiri hamda shu mahallada joylashgan 40-umumta’lim maktab o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida yugurish marafoni tashkil etildi. Musobaqa g‘olib va sovrindorlari viloyat kengashi tomonidan 1,2,3 darajali diplom va sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib etish yo‘nalishida yoshlarda vatanparvarlik, yurtga sadoqat, halollik va mardlik tuyg‘ularini mustahkamlash maqsadida joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyat kengashi tizimidagi barcha korxona, tashkilot va muassasalarda “Ma’naviyat soatlari” tashkil etildi va ularda 7 mingdan ortiq yoshlarning ishtiroki ta’minlandi.

Yoshlar bilan ochiq muloqotlar o‘tkazish yo‘nalishida viloyat kengash raislari, mas’ul tashkilotchilar va birlashgan kasaba uyushma qo‘mita raislari tomonidan muntazam ravishda yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Ushbu uchrashuvlarda 3 ming nafar yoshlar ishtirok etdi.



Yoshlar tomonidan nuroniylar holidan xabar olish orqali yoshlar ongida oila muqaddasligi, milliy qadriyatlarga sodiqlik g‘oyalarini rivojlantirish maqsadida “Nuroniylar e’zozimizda” aksiyalari tashkil etilib, ushbu aksiyalarida 700 nafar yoshlarning faol ishtiroki ta’minlandi.

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtidorli talabalarni qo’llab-quvvatlash maqsadida ta’sis etilgan “Kasaba uyushmalari stipendiyasi” bo‘yicha O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan nizom talablari asosida bir nafar nomzodni tanlab olindi. Belgilangan muddatlarda Federatsiya Kengashining yoshlar bo‘limiga nomzodning hujjatlari taqdim etildi.

Xususan, Navoiy davlat pedagogika institutining Fizika-matematika fakulteti, “Fizika va astronomiya” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Namozova Nilufar To‘xtamurodovna “Kasaba uyushmalari stipendanti” stipendiyasiga loyiq deb topildi.

Kasaba uyushmalari a’zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya qilishda faollik ko‘rsatib kelayotgan yosh xodimlar, bolalikdan nogiron bo‘lgan yoki yetim, ijtimoiy muhofazaga muhtoj yosh kasaba uyushmasi faollaridan 1 nafarini O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan nizom talablari asosida tanlab olindi.



Xususan, "Navoiazot" AJ 718-sex yuklovchisi Boltayev Ikrom Normurotovich O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufidagi sanatoriyda bepul sog'lomlashtirish uchun tavsiya etildi.

Bugungi kunga qadar yoshlarning 3 nafariga kasaba uyushmalari stipendiyasi berildi va 3 nafar yoshlarimiz kasaba uyushmalari tomonidan bepul sog'lomlashtirildi. Bu kabi ishlar 2022 yilda xam davom etadi.

Viloyat kengashi, Uchquduq tuman bo'linmasi kengashi va XTB hamkorligida "1 iyun-Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan Zarafshondagi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining 17 nafarariga 1 700,0 so'm miqdorida oziq-ovqat mahsulotlari, tumandagi 7 nafar uy ta'limidagi o'quvchilarga 700,0 ming so'mlik manzilli yordam ko'rsatildi.. Zarafshon shaxar kengashi tomonidan bayram munosabati bilan Tomdi tuman bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilariga 400 ming sumlik kitoblar jamlanmasi sovg'a qilindi. Zarafshon shahar 3-maktab boshlang'ich kasaba uyushmasi tomonidan 120 nafar bolajonlarga ish beruvchi xomiyligida muzqaymoqlar tarqatildi. Bayram munosabati bilan "Favvoralar saylgohi"da konsert namoyish etildi.

Joriy yilning 10 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6099 sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 noyabrdagi "Ahолинг сог‘лом турмуш тарзини қо‘ллашувватлаш ва жисмонија фоалигини оширишга доир қо‘шимча чора-тadbirlar to'g'risida"gi 735-sonli, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosatining 2020 yil 2 dekabrdagi "Xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga ko'maklashish to'g'risida"gi 01-11-""s"-sonli qarorlarida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida korxona, tashkilot va muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar o'rtasida o'tkaziladigan "Ayollar spartakiada" sport musobaqalarining viloyat bosqichi kutarinki kayfiyatda tashkil etildi.



Mazkur spartakiadaning tuman, shahar bosqichi g'olibligini qo'lga kiritgan 17 ta jamoa sportning stol tennisi, voleybol, shashka, shaxmat, stritbol, yengil atletika, darts turlari bo'yicha o'zaro bellashdilar. "Ayollar spartakiada" musoboqalarini tartibli tashkil etish maqsadida yuqorida nomlari keltirilgan sport turlari bo'yicha 12 nafar sudyalar musobaqalarni Nizom talablar asosida o'tkazishga jalg etildi. Shuningdek, sport tadbirining viloyat bosqichiga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufidagi Jismoniy tarbiya va sport – sog'lomlashtirish boshqarmasi" unitar korxonasi rahbari **Tojiyev Bahodir Muhiddinovich**, viloyat sport boshqarmasi boshlig'i **Narziyeva Shaxlo Pardayevna**, bir guruh sport faxriylari, madaniyat xodimlari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi. Dastlab, spartakiadaning ochilish marosimi tantanali tashkil etilib, viloyatimizdagi mavjud sport buyicha ixtioslashtirilgan o'quv muassasalarida tarbiyalanayotgan yosh sportchilarning ko'rgazmali chiqishlari barcha ishtirokchilarga ruhiy kayfiyat bag'ishladi. Ayniqsa, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufidagi Jismoniy tarbiya va sport – sog'lomlashtirish boshqarmasi" unitar korxonasi rahbari **Tojiyev Bahodir Muhiddinovich** tomonidan viloyatimizdagi uch nafar sport sohasida samarali mehnat qilgan **Haitov Ravel Shukurovich**, **Latipova Zina Musevna**, **Kenjayev Ravshan Kenjayevichlarni "Sport ustasi"** kukrak nishoni bilan taqdirlandilar. Mazkur tadbirning barcha bosqichlari (saralash bosqichilari) da jami 800 nafardan ortiq yoshlar ishtirok etishdi.



2021 yilning 7-yanvar kuni soat 11-00 da birlashma faollar zalida Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar Kengashi bilan hamkorlikda “**Kim Vatanga sodiq bo‘lsa, mendirman o‘sha!**” ezgu g‘oya ostida “**O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari - yurt tinchligi va xavfsizligining kafolatidir**” mavzusida “Ma’naviyat soati” tashkil etildi. “Ma’naviyat soati”da mudofaa tizimida faoliyat yuritayotgan 5 nafar faxriylar, afg‘on urushi qatnashchilari, 10 nafar harbiy qism xizmatchilari hamda birlashma apparati xodimlari ishtirok etdi. “Ma’naviyat soati”ga tashrif buyurgan harbiylar tomonidan harbiy xizmatning o‘ziga xos jihatlari hamda o‘zlarining hayoti davomida ko‘rgan kechirganlari, shuningdek, bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari faoliyatining holati yuzasidan keng tushuntirib berish bilan bir qatorda jangovor holatni aks ettiruvchi videolavhalar orqali, urush vaqtlaridagi qiyinchiliklar, ocharchilik davrlari bilan hozirgi tinch-osoyishta va to‘kin hayotimiz haqidagi hayotiy tajribalari bilan o‘rtoqlashdi. Bayram munosabati bilan kasaba uyushmalari tomonidan mehmonlarga esdalik sovg‘alari taqdim etildi. Joriy yilning 8 yanvar kuni birlashmaning Madaniy-ma’rifiy va sport ishlari bo‘limi hamda 523-sonli harbiy qism boshlang‘ich kasaba qo‘mitasi bilan hamkorlikda viloyat “Barkamol avlod” markazi faollar zalida bir oylik harbiy safarbarlikka chaqiriluvchi 450 nafar vatan himoyachilari bilan “**Kim Vatanga sodiq bo‘lsa – mendirman o‘sha!**” g‘oyasi ostida madaniy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirni birlashma raisi o‘rinbosari Normurod Isoqov kirish so‘zi bilan ochdi va ishtirokchilarga vatanimiz mudofaa tizimini rivojlantirish, harbiy qismlarda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yuksak natijalari haqida so‘zlab berdi. Tadbirda harbiylar bilan sport musobaqalari, topqirlilik mashqlari o‘tkazildi. G’oliblar kasaba uyushmalari mablag‘lari hisobidan 750 ming so‘mlik esdalik sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi. Tadbir so‘ngida Karmana tuman madaniyat bo‘limi tomonidan tashkil etilgan konsert dasturi namoyish etildi. (*Fotolavhalar bilan izohlanadi*)



Navoiy viloyati Yakka Kurash Turlariga Ixtisoslashtirilgan Bolalar va o'smirlar sport muktabi taekvando VTF bo'limida Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-tonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 noyabrdagi "Ahолинг sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 739-tonli qarori, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida, 14 yanvar - Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan Madaniyat, sport turizm birlashgan qo'mitasi bilan hamkorlikda sport tadbiri tashkil etildi. Bellashuv g'oliblari Navoiy viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Ushbu tadbirda jami 800 dan ortiq yoshlarning ishtiroki ta'minlandi.

Navro'z umumxalq bayramini munosib kutib olish maqsadida barcha tashkilot, muassasa va korxonalarda bayram tadbirlari karantin qoidalariga riosa qilingan holatda o'tkazildi. Shuningdek ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar bo'linmasi kengashi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarda ham 21 mart Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan tadbirlar o'tkazildi. Navoiy shahridagi 10-tonli DMTT da "Nafosat malikalari"deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirga ishtirok etgan xodimlarga kasaba uyushmasi mablag'lari hisobidan 500 ming so'mlik esdalik sovg'alari taqdim etildi. Shuningdek, Navoiy viloyati matematika, fizika va ingliz tiliga ixtisoslashgan maktab internati ishchi xodimlariga kasaba uyushma mablag'lari hisobidan 2 mln so'mlik oshxona jixozlari olib berildi.



Navoiy viloyat maktabgacha ta’lim boshqarmasi tomonidan 1 nafar xodimga 600 ming so‘m pul mablag‘i hamda 10 nafar tegishli tashkilotlarda mexnat qilib, hozirda nafaqada bo‘lgan keksa va nogironlar, yolg‘iz qariyalar, boquvchisini yo‘qotgan, kam ta’milangan oilalarga ish beruvchi mablag‘lari hisobidan 1 mln 350 ming so‘mlik oziq-ovqat jamlanmasi berildi. Bayram arafasida Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan Navoiy shahar xalq ta’limi bo‘limi xodimlari xomiylar mablag‘lari hisobidan Samarqand shahriga sayohati tashkil etildi. Navoiy shahridagi 1-sonli matabning o‘qituvchi va o‘quvchilari ham ish beruvchi va xomiylar mablag‘lari hisobidan Samarqad shahriga sayohati uyuşhtirildi. Ushbu tadbirlarda **jami 3mingdan ortiq yoshlarning ishtiroki ta’mmlandı**. 5-fevral kuni Navoiy viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi faollar zalida kasaba uyushmalari faollari, mas’ul tashkilotchilar hamda apparat xodimlari ishtirokida ““Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g‘oyalari” mavzusida ma’naviyat soati o‘tkazildi. Mazkur ma’naviyat soatida Alisher Navoiyning ijod yo‘llari hamda asarlari xodimlarga soha mutaxassislari tomonidan ma’ruzalar qilinib, video roliklar orqali keng yetkazib berildi.

Joriy yilning 2 mart kuni Madaniyat sport va turizm yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan yoshlar ishtirokida Konimex tumanidagi **“Ekopark”** dam olish maskaniga **“Ekoturizm”** aksiyasi tashkil etildi. Mazkur aksiyada 56 nafar yoshlar ishtirok etdilar.

Navoiy viloyati ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’limi matab internatining 10-11-12 sinflarning 22 nafar o‘quvchilarni NDPI qoshidagi “Qatog‘on qurbanlari” muzeyiga tashriflari tashkil etildi. Shuningdek, Karmana tuman 25-maxsus matab internatidagi imkoniyati cheklangan 24 nafar yoshlarni viloyat muzeyiga tashriflari tashkil etildi. Bundan tashqari ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tizimidagi “2-sonli, 16-sonli, 10-sonli, 5-sonli maktablardan 212 nafar yoshlarni hamda 2-sonli DMTT, 5- sonli DMTT, 25-sonli DMTT, 33-sonli DMTT dagi maktabga tayyorlov guruhlarini tashrifi tashkil etildi. Yil davomida 500 nafardan ortiq yoshlarning viloyat muzeylariga sayohati uyuşhtirildi.



8 dekabr – Konstitutsiya qabul qilingan kuni munosabati bilan Navoiy davlat pedagogika institutining barcha fakultetlarida “Konstitutsiya huquq va erkinligimiz kafolati” mavzusidagi targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi.

Tarix fakulteti "Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi" kafedrasi professor-o‘qituvchilari hamda Navoiy viloyati Milliy gvardiya boshqarmasi hamkorligida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligi munosabati bilan talabalar va mакtab o‘quvchilari ishtirokida davra suhbatি tashkil qilindi.

Chet tillar fakultetining faollar zalida "Konstitutsiya - yoshlar nigohida" nomli tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbir rus tili va adabiyoti o‘zga tilli guruhlari talabalari va fakultet tyutorlari tomonidan tashkil etildi.

O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida "Baxtu iqbol kafolati-Bosh qomusim" mavzusida adabiy-badiiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirni Yoshlar masalalari bo‘yicha prorektor X. Qurbonov ochib berdi va konstitutsiyamizning shonli tarixini dalillar asosida sharhlab berdi.

Yoshlar markazida San’atshunoslik fakulteti talabalarini tomonidan Konstitutsiyamizning 29 yilligi munosabati bilan konsert dasturi tashkil etildi.

Ingliz tili va adabiyoti fakultetida ham "Konstitutsiya-Bosh komusimiz" mavzusida tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda vatanni madx etuvchi kuy-qo‘shiqlar, she’rlar yangradi. Qiziqarli sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.

Matematika-informatika fakulteti talabalarini bayram munosabati bilan "Konstitutsiya — baxtimiz qomusi", deb nomlangan bayram tadbirini o‘tkazdi.

Fizika va texnologik ta’lim fakulteti guruxlarida Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun munosabati bilan turli tadbirlar o‘tkazildi. Tadbirlarda Konstitutsiyamizning barqarorligi, uning eng muhim prinsiplari va normalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar talabalarga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasining “**Kasaba uyushmalari to‘g‘risida**”gi va “**11 noyabr – Kasaba uyushmalari** kuni to‘g‘risida”gi Qonunlar mazmun-

mohiyatining targ‘ibotini tashkil etish maqsadida Yoshlar birlashmasi, Yuridik, Mehnatni muhofaza qilish, tashkiliy ishlari bo‘limlari, tarmoq kasaba uyushmalarining mas’ul tashkilotchilari hamkorligida birlashma apparat yig‘ilishida berilgan topshiriq asosida targ‘ibot dasturi ishlab chiqilib, targ‘ibot materiallarini tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yildi va targ‘ibot tadbirlari olib borildi.



Joriy yilda viloyat bo‘yicha 12 ta shahardan tashqari, 5 kunduzgi oromgohlarida jami **14 ming 362 nafar bolalarni** sog‘lomlashtirish ko‘zda tutilgan. Xususan, “Navoiyazot” AJ tasarrufidagi “Oftobjon”, Qiziltepa tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli “Do‘stlik” va “Nimkon”, O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat kengashi qoshidagi “Ishonch” oromgohi, shuningdek “Qizilqumsement” AJ tasarrufidagi “Shaboda” oromgohi, NKMK qarashli 6 ta shahardan tashqari “Sarmish”, “Sug‘diyona”, “Bolajon”, “Kelajak”, “Pahlavon”, “Zarafshon” hamda 7 ta kunduzgi oromgohlar o‘z faoliyatini boshlagan. Birinchi smenada jami 2755 nafar bolalar sog‘lomlashtirildi, ulardan 225 nafari “Ayollar daftari”, “Temir daftar”, “Yoshlar daftariga” kirgan aholining 7-14 yoshli farzandlari. Mazkur bolalar NKMK tasarrufidagi oromgohlarda bepul sog‘lomlashtirilmoqda. **Barcha sog‘lomlashtirish oromgohlarida “Oromgohimda 5 ta muhim tashabbus”** loyihasi doirasida “Kitob mening do‘stim” viktorina va aksiyasi, “Yosh kitobxonlar”, “Men sevib o‘qigan kitob”, “Eng yaxshi kitobxon”, “Biz yoshlar giyohvanlikka qarshimiz ”shiori ostida rasmlar tanlovi, kompyuter savodxonligini oshirish bo‘yicha ham turli xil tadbirlar o‘tkazilmoqda.



Yoshlar birlashmasi va Ta’lim va fan Navoiy shahar bo‘linmasi tashabbusi bilan Yoshlar oyligi doirasida Navoiy shahridagi 12-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim mакtabining 18 nafar o‘quvchilari o‘rtasida rasmlar tanlovi o‘tkazildi. Tanlovga ishtirok etgan o‘quvchilarga Navoiy shahar bo‘linmasi tomonidan 800 ming so‘mlik o‘quv qurollari jamlanmasi taqdim etildi. Shuningdek, yoshlar oyligi doirasida “Oftobjon” oromgohida ham yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv davomida “Kitob menig do‘stim”, “Biz yoshlar giyohvandlikka qarshimiz” mavzusida rasmlar tanlovi tashkil etilib, tadbir so‘nggida g‘olib yoshlarga Viloyat Kengashining estalik sovg‘alari berildi.

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtidorli talabalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’sis etilgan “Kasaba uyushmalari stipendiyasi” bo‘yicha O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan nizom talablari asosida bir nafar nomzod tanlab olindi. Belgilangan muddatlarda Federatsiya Kengashining yoshlar bo‘limiganomzodning hujjatlari taqdim etildi.

Xususan, Navoiy davlat pedagogika institutining Fizika-matematika fakulteti, “Fizika va astronomiya” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Namozova Nilufar To‘xtamurodovna “Kasaba uyushmalari stipendanti” stipendiyasiga loyiq deb topildi.

Kasaba uyushmalari a’zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya qilishda faollik ko‘rsatib kelayotgan yosh xodimlar, bolalikdan nogiron bo‘lgan yoki yetim, ijtimoiy muhofazaga muhtoj yosh kasaba uyushmasi faollaridan 1 nafarini O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan nizom talablari asosida tanlab olindi.



Xususan, "Navoiazot" AJ 718-sex yuklovchisi Boltayev Ikrom Normurotovich O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufidagi sanatoriyda bepul sog'lomlashtirish uchun tavsiya etildi.

3 dekabr kunida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat kengashi tashabbusi bilan "3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan Navbahor tumanida joylashgan viloyat "Asab-ruhiy kasallikkari dispanseri"da kasaba uyushma faollari va yoshlari ishtirokida mehr-muruvvat tadbiri tashkil etildi.

Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Qiziltepa tuman bo'linmasi kengashi va viloyat kengashi tomonidan 3-dekabr "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan, tuman xokimligi, tuman prokuraturasi, Xalq ta'limi bo'limi bilan birgalikda 1 dekabr kuni uy sinflarida taxsil olayotgan nogiron o'quvchilar va ularning o'qituvchilari 3-sonli musiqa maktabida bayram tadbiriga ishtirok etishdi. Tadbirda katta konqert dasturi tashkil qilindi va 50 nafar nogiron o'quvchilarga ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tomonidan 3 mln so'mlik o'quv qurollari tarqatildi.

3-dekabr kuni Qiziltepa tumanidagi 36- maxsus internat o'quvchilariga bayram dasturxoni tashkil qilindi. Tumandagi musiqa maktab ishchi xodimlari tomonidan konsert va kasaba uyushmasi tomonidan 80 dona badiiy kitoblar sovg'a qilindi va o'quvchilarga tarqatildi.



Navoiy shahar 8-sonli IATChO'IT mактабида та'lim оlayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda uyda ta'lim оlayotgan o'quvchilarning уylariga bayram munosabati bilan borildi. O'quvchilar holidan habar olindi hamda oziq-ovkat maxsulotlari, shirinliklar tarqatildi.

4 dekabr kuni Navoiy shaxar Issiklik manbaiy davlat unitar korxonasi xamda Zarafshon filiali Issiklik manbai DUK korxonasi ishchi xodimlarining nogiron farzandlari xamda Navoiy shaxridagi nogironligi bor ijtimoiy ximoyaga muxtoj 32 nafar xonadonga 6300000 (olti millon uch yuz ming) sumlik ozik-ovkat maxsulotlar tarkatildi.

6 dekabr kuni "ZARAFShON GOLDYeN GROUP" MChJ TOMONIDAN Navoiy shaxar maxallalarida yashovchi nogironligi bulgan shaxslarning 45 nafariga moddiy yordam kursatildi. Zarafshon shahar "Varkamol avlod" bolalar mактabi kasaba uyushmasi raisi hamda xodimlari tomonidan uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi imkoniyati cheklangan o'quvchilar xonadonlariga tashrif buyurilib ularga o'quv qurlollari taqdim etildi. To'garak a'zolari tomonidan turli xil ertaklardan parchalar namoyish etilishi bolajonlarga quvonch bag'ishladi.

Uchquduq tumani XTBga qarashli 4-9-18-sonli maktabning uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o'quvchilar xonadonlariga musiqa sadolari, hamda ertak qahramonlari bilan birga kirib borishi o'quvchilarga yaxshi kayfiyat bag'ishladi. tashrif davomida kasaba uyushma faollari hamda mакtab rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari hamda oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligi bayramini munosib nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga asosan va 3 dekabr «Nogironlar kuni» munosabati bilan «Navoiyazot» AJda yolgiz pensionerlar, nafaqadagi ishlab chiqarish nogironlari, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa oqibatida vafot etgan xodimlar, mehnat fronti qatnashchilari xonadonlariga jami 5 475802 so'mlik 82 dona, nogiron farzandi bor hamda kam ta'minlangan oilalarga umumiy qiymati 4 mln 760 ming

so‘mlik 28 dona oziq-ovqat mahsulotlari to‘plamlari yetkazib berildi. Mazkur tadbirlarning barchasida yoshlarning faol ishtiroki ta’minlandi.

Joriy yilning dekabr oyida viloyat kengashining majlislar zalida «Vatanga xizmat - Oliy fazilat» shiori ostida yoshlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi xodimlari va faxriylari, 99451, 7532, 7259 harbiy qism harbiy xizmatchilari, kasaba uyushmasi faollari va yoshlari, Navoiy shahridagi 7-sonli umumta’lim maktab o‘quvchilari, viloyat hokimligi harbiy ma’muriy sektor rahbari maslahatchisi, viloyat Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti xodimlari, viloyat yozuvchilar uyushmasi raisi ishtirok etdi. Tadbirni Viloyat Kengashi raisining o‘rinbosari Normurod Isokov ohib berdi. Shundan so‘ng hamkor tashkilotlarning rahbar va mas’ullari tomonidan ma’ruzalar qilindi. Yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafla va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish lozimligi ta’kidlandi. Tadbir so‘nggida ijodkor yoshlar tomonidan “Vatan” va “Tinchlik” haqida she’rlar o‘qildi. Yil davomida yoshlar bilan uchrashuvlarda 4 mingga yaqin yoshlar ishtirok etdi.

Navoiy shahar tibbiyat birlashmasi majlislar zali, RShTYoIM Navoiy filiali majlislar zali, Karmana, Xatirchi, Navbahor, Nurota, Konimex, Qiziltepa TTblarda Navoiy va Zarafshon shahar tibbiyat birlashmalarida, Navoiy viloyati perinatal markazi majlislar zali hamda viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyat markazi majlislar zalida yoshlar o‘rtasida oila muqaddasligi g‘oyalarini keng targ‘ib qilish bo‘yicha “Davra suhbatlari” tashkil etildi. Tadbirlarda 350 nafar yoshlarning ishtiroki ta’minlandi.



Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda Yoshlar birlashmasi, kasaba uyushmalari faoliyati bo‘yicha materiallar muntazam ravishda yoritilib borilmoqda. Jumladan, 2021 yil 28 yanvar 15-sonida “Ishonch” gazetasining “Bardavom an’analar samarasi”, 18 fevral 23-sonida “Fikr almashildi”, Do’stlik bayrog‘i gazetasining

17.02.21 №7 sonida “Jamoa shartnomalarining bajarilishi va muhokamasi”, “Ishonch-doveriye” gazetasi 2021 yil 28 may 24 sonida “Xronika aktualnx insiativ”, Do‘stlik bayrog‘i gazetasi 2021 yil 30 iyun 26 sonida “Xodimlar salomatligi e’tiborda”, “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasi 2021 yil 9 iyun 23-sonida “Millatparvar maqolasini o‘qib”, Do‘stlik bayrog‘i gazetasi 2021 yil 16 iyun 24 sonida “Bolalar mehnatiga yo‘l qo‘yilmaydi”, “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasi 2021 yil 23 iyun 25-sonida “Yosh pedagoglar salomatligi e’tiborda”, 2021 yil 9 iyun Do‘stlik bayrog‘i gazetasi “Oromgohlarda birlashtiruvchi”, Ishonch-Doveriye gazetasi 2021 yil 18 iyun 27 sonida “Otdix s polzoy”, Ma’naviyat ko‘zgusi gazetasi 2021 yil 14 iyun 11 son “Bolajonlar oromgoh bag‘rida”, “Ishonch-Doveriye” gazetasining 2021 yil 16 iyun 77 sonida “Oftobjon”da ajoyib kun, “Ishoch” gazetasi 2021 yil 19 iyun 78 sonida “Ustozlar hamisha e’zozda”, “Ishonch” gazetasining 2021 1il 8 iyun 75-sonida “Ishonchda bolalar quvonchi”, “Ishonch” gazetasida 2021 yil 1 may 61-sonida “Kasbga havas uyg‘otgan sayohat” “Ishonch” gazetasi 2021 yil 29 aprel 57-60 sonida “Jamoa minnatdormi” kabi sarlovhali maqolalar chop etildi.



Ishonch gazetasining 2021 yil 14 iyuldaggi №89-90 sonlarida “Ishonch”da yangi mavsum, Ishonch gazetasi 2021 yil 3 iyul, №-84-sonida “Xodimlar manfaati yo‘lida”, 2021 yil 14 Oktyabr №-45 sonida “Iqtidorli yoshlar maskani” kabi sarlovhali maqolalar chop etildi. Shuningdek, “Ishonch” gazetasining 2021 yil 20 noyabrdagi № 144-sonida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi, Ishonch gazetasining 2021 yil 11 noyabrdagi 135-141 sonlarida “Hayot daftaridagi shukronalik bitiklari”, Ishonch gazetasining 2021 yil 4 dekabr sonida “Mehrdan yashnagay dunyo chamani”, “Do‘stlik bayrog‘i” viloyat hokimligi gazetasining 2021 yil 10 noyabrdagi 45-sonida “Ixtiyoriy jamoat tashkiloti xodimlari bayrami keng nishonlandi”, “Mehnatkashlar huquqlari himoyachisi va manfaatlari ta’minotchisi” kabi sarlovhali maqolalar chop etildi.

Shuningdek, Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi “Diyor 24, “Diyor yangiliklari” ko‘rsatuvlari orqali 15 ga yaqin tadbirlar tvda ko‘rsatildi. Navoiy viloyat hokimligi

axborot xizmatining rasmiy kanalida, shuningdek, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat kengashi sayti, telegramm gruppasi va kanallari orqali kasaba uyushmalari faoliyati keng yoritilib borilmoqda.

Yoshlar birlashmasi raisi

D.O'razova